

ACCESSION OF AMIR NASRULLAKHAN TO THE THRONE OF  
BUKHARA*Sobirov Jamshidbek**Andijan State University 3 course Student Of History Faculty*

**Abstract:** *This article talks about the subjugation of the Khanate of Bukhara by Iran and its transformation into an emirate and the accession of Amir Haidar's son Amir Nasrullah to the throne.*

**Key words:** *Emirate of Bukhara, false khan, Samarkand, Jizzakh, Oratepa, Hisar, Boysun, Shahrisabz, Qushbegi*

**Introduction**

Buxoro davlatining zaiflashib qolganligidan foydalangan Eron shohi Nodirshoh XVII asrning 30-40-yillarida Buxoro xonligiga yurish qiladi. Nodirshoh Buxoro xonligida katta mavqega ega bo'lgan mang'it urug'idan chiqqan otaliq Muhammad Hakimbiy bilan shartnoma tuzadi va u Buxoro xonligining oliy hukmdori deb tan olinadi. Abulfayzxon amalda hokimiyatdan chetlatib qo'yiladi, Hakimbiy Buxoroning to'la vakolatli hokimi etib tayinlanadi. 1743 yilda Hakimbiy, uning o'g'li Muhammad Rahim Nodirshoh xizmatiga kiradi. Nodirshoh 1747 yilda vafot etgach, Muhammad Rahim hokimiyatni o'z qo'lga olishga kirishadi. Buxoro xonligida katta nufuzga ega bo'lgan mang'it qabilasining vakili Muhammad Rahim 1747 yilda Abulfayzxonni, so'ngra rasman xon deb (soxta xon) e'lon qilingan uning o'g'illari Abdulmo'min va Ubaydullo sultonlarni o'ldirib, hokimiyatni o'z qo'lga oladi. Muhammad Rahim 1756 yilda taxtga o'tirib, o'zini Buxoro amiri deb e'lon qiladi va hokimiyatni

mustaqil idora qiladi, Mang'itlar sulolasiga asos soladi. Shundan e'tiboran Buxoro xonligi Buxoro amirligi deb atala boshlandi.

### **Adabiyotlar tahlili**

Amirlikda hokimiyat 1920 yilgacha Mang'itlar sulolasi qo'lida bo'ldi. Muhammad Rahim xukmronligini beklik-viloyatlardagi boshqa qavmlardan bo'lgan hokimlar tan olmadilar. Amir mang'itlarga tayanib hokimiyatni markazlashtirishga intildi. Barcha qabilalarning hukmdorlarini Buxoroga yig'ib, ulardan markaziy hokimiyatga bo'ysunishni talab qildi, aks holda qattiq jazolanishi haqida ogohlantirdi. Viloyatlardagi ko'pgina hokimlar, bebosh amaldorlar hokimiyatdan chetlashtirilib, er-mulki tortib olinib boshqa joylarga ko'chirildi. Ular o'rniga amir qabiladoshlaridan tayinlandi. Muhammad Rahim Buxoro minorasi yonidagi o'z qarorgohini maxsus qurdirgan Arkka ko'chirdi. O'zboshimcha beklarni Arkka chaqirib qattiq jazoladi. Tarqoqlikni bartaraf etish maqsadida ko'pgina bekliklarga - Samarqand, Jizzax, O'ratepa, Xisor, Boysun, Shahrisabzga qarshi qonli urushlar qildi, ko'pgina viloyatlar vayron bo'ldi. Muhammad Rahim Nurotada istiqomat qiluvchi burgut qabilasi qo'zg'olonini bostirib, ularning xarbiy istehkomlarini buzib tashlab, o'zlarini Buxoro tumaniga ko'chirdi. Miyonqal'a qipchoqlariga hujum qilib, istexkomlarini buzib tashlaydi, yo'lboshchilarini qatl etib, qolganlarini ko'chirib yuboradi. Muhammad Rahim vafotidan keyin o'zaro urushlar yanada kuchaydi. Viloyat hukmdorlari mang'itlarning markaziy hokimiyatiga qarshi qo'zg'olonlar ko'tardi. Kenagas, yuz, baxrin, burgut, saroy qabilalarining qo'zg'olonlari, xokimiyatga o'tirgan Doniyolbiyning ularni bostirish uchun qilgan urushlari minglab odamlarning yostig'ini quritdi. Doniyolbiy qo'shinlar xarajati uchun qo'shimcha soliqlar joriy etib aholi noroziligini oshirdi. Buxoro hunarmandlari va tijorat ahli 1784 yilda qo'zg'olon ko'tardi. Qo'zg'olonni bostirish jarayonida minglab odamlar qurbon bo'ldi. Amir Ma'sum («begunoh amir») deb nom olgan Shohmurod (1785-1800 yillar) tarqoqlikka

qarshi kurashni davom ettirdi. Amir Shohmurod boshqaruv tartibini o'zgartirish, amaldorlar tarkibini yangilash choralarini ko'rdi. Amir ikki yirik davlat arbobi - Davlat qushbegi bilan Nizomiddin qozikalonni saroy, qo'shin va boshqa sohadagi amaldorlar huzurida o'z qo'li bilan o'ldirdi. Soliqlarni tartibga soldi. Buxoro aholisiga tarxan yorlig'ini topshirdi. Unga binoan aholi savdo daromadidan boj to'lashdan, hunarmandlar pul yig'imidan, majburiy mehnat va soliqlardan ozod etildi. Shunigdek, xiroj, nikoh puli, tarozi haqi va boshqa yig'implar miqdori kamaytirildi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Shohmurod davrida Buxoro amirligi nisbatan mustahkamlangan bo'lsada, o'zaro urushlar to'xtamadi. G'arbiy chegaralarda esa Xiva xoni qo'shinlari xujumga o'tar, ekinzor va bog'lar payhon qilinadi, qishloqlar vayron bo'lar, odamlar va chorva mollar haydab ketilar edi. Tarixga Xoni shahid (Shahid xon) nomi bilan kirgan mang'itlar sulolasining yettinchi hukmdori Amir Nasrulloh Bahodurxon 1806 yil 1 iyunda Buxoro shahrida Amir Haydarning xonadonida ikkinchi o'g'il sifatida dunyoga keldi. Bu haqda mashhur alloma Ahmad Donish o'zining "Ta'rixi saltanati mang'itiya" asarida yozib o'tgan. (Ba'zi tarixchilar Amir Nasrullohning tavallud sanasi to'g'risida boshqacha ma'lumotlarni yozib qoldirishgan. Ularning ifkricha, Amir Nasrulloh 63 yoshida 1860 yili vafot etgan. Demak, ularning yozganlaridan Amir Nasrulloh taxminan 1797 yilda tug'ilganligi anglashiladi. Biroq, u Amir Haydar xonadonida ikkinchi o'g'il ekanligini e'tiborga olsak, Ahmad Donishning yozgan fikri haqiqatga ancha yaqinroq. Biz hozircha tarixiy adabiyotlarda Amir Nasrulloh tug'ilgan sana sifatida 1806 yil qolishini qo'llab-quvvatlaymiz. Nasrullohxonning ma'naviy kamolotga erishuvida Buxoroda katta nufuzga ega bo'lgan mashhur shayx Muhammad Husayn Alaviy Buxoriy (1785-1870) muhim rol o'ynagan. Keyinchalik Nasrulloh o'zining piri hisoblagan bu shayxni Romitan tumanidagi Qori Kamol

qishlogʻidan Buxoro shahriga koʻchirib keltirib, unga shayx Habibulloh xonaqosijan maxsus hujra ajratib bergan va nafaqa tayinlagan. Bu maʼlumotlarni tarixchi olim Muhammad Nasriddin Hanafiy Hasaniy Buxoriy (Amir Muzaffarning oʻgʻli) oʻzining 1910 yili Yangi Buxoroda nashr etilgan “Tuhfat az-zoirin” (“Ziyoratchilarga tuhfa”) asarida keltirib oʻtadi.

### **Tahlil va natijalar**

Nasrullohxon otasi Amir Haydar hamda birodarlari Husayn va Umarxonlarning hukmronligi davrida Qarshida hokimlik qilgan. Amir Haydar vafoti (1826 yil 6 oktabr) dan soʻng hokimiyat uchun kechgan keskin kurashlarda birodarlari Amir Husayn (1797-1826) va Amir Umarxon (1810-1829) hamda boshqa ukalari ustidan gʻolib kelib, 1827 yil aprel oyining boshlarida 21 yoshida Buxoro amirligi taxtiga oʻtirdi. Amir Nasrullohxon Buxoro amirligi taxtiga oʻtirgan mangʻitlar sulolasining yettinchi hukmdori boʻldi. Tarixchi olim Mirzo Abdulazim 15 Somiyning fikricha, Buxoroamirligi taxtini egallashda Nasrullohxonga otasining vaziri boʻlgan Muhammad Hakimbiy Qushbegi katta yordam koʻrsatgan. U Buxoroni qamal qilib turgan Nasrullohxon qoʻshinlariga shahar darvozasini ochib beradi. XIX asr 20-yillarida Buxoroda yuz bergan siyosiy voqealarning bevosita ishtirokchisi, hokimiyat uchun kurashda Amir Haydarning har uchala oʻgʻliga navbati bilan yordam bergan va uchala hukmdorning ham xizmatida ozmi-koʻpmi muddat boʻlgan munshiy va tarixchi Mirzo Shams Buxoriy (1804-taxminan 1865) keyinchalik yozgan “Buxoro, Qoʻqon va Qoshgʻarning ayrim voqea-hodisalari bayoni” nomli asarida (bu asarning soʻnggi qismi 1861 yil sharqshunos V.Grigoryev tomonidan Qozonda nashr etilgan) Amir Nasrullohning hokimiyat uchun kurashini tasvirlab, oʻsha paytda Buxoroda koʻp qon toʻkilganligini yozadi. Mirzo Shams Buxoriyning fikricha, Buxoro shahrini egallash va Umarxonni hokimiyatdan agʻdarib tashlash jarayonida 7-8 ming kishi halok boʻlgan. Bundan tashqari, Amir Nasrulloh oʻz hukmronligining

dastlabki oylarida har kuni 50-100 kishini qatl qilib turgan, natijada ko‘plab kishilar Shahrizabz va boshqa joylarga qochib ketgan. Mirzo Shams Buxoriyning o‘zi ham bu paytda muayyan muddat Amir Nasrulloh xizmatida bo‘lganligi, biroq keyinchalik Shahrizabzga borib, u yerda 11 oy yashagach, so‘ngra Qo‘qonga-badarg‘alikda yurgan sobiq amir Umarxon huzuriga borganligi inobatga olinadigan bo‘lsa, u Amir Nasrullohga muxolifatda bo‘lib, uning faoliyatini haddan tashqari qora bo‘yoqlarda tasvirlanganligining sabablari oydinlashadi.

### Xulosa

Keyingi davr tarixchilari va sayohatchilarining Amir Nasrulloh haqidagi fikrlarini umumlashtirib aytadigan bo‘lsak, Nasrulloh o‘zining barcha potensial raqiblarini qisqa muddat mobaynida yo‘qotgan yohud ularni Buxorodan badarg‘a qilgan. Ushbu fikrga e‘tiroz bildirish qiyin. Biroq, u har kuni Buxoroda 50-100 kishining qonini to‘kkanligi esa mubolag‘adan boshqa narsa emas.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сагдуллаев А., Мавлонов Ў. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи. - Тошкент: Академия, 2006.
2. Мирза Абдал Азим Сами. Тарихи Салатини-и мангитийа (История мангытских государей). / Пред. Л.М.Епифановой. – М.: Вост. литер., 1962.
3. Азамат Зиё Ўзбек давлатчилиги тарихи: (энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). – Тошкент: Шарқ, 2001.
4. Ражабов Қ. Амир Ҳайдар ёхуд Амири Саййид // Бухоро мавжлари. – Бухоро, 2006. - №2.
5. Воҳидов Ш. Қўқон хонлиги ва Бухоро амирлигида унвон ва мансаблар. – Тошкент: Фан, 1996.
6. Муқимов З.Й. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. – Самарқанд: Зарафшон, 1998.